

BOLALARNI MILLIY QADRIYAT VA AN'ANALAR ASOSIDA TARBIYALASHDA OILA VA TA'LIM MUASSASASINING HAMKORLIGI

Ismoilova Masturaxon Axmadaliyevna

**University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi
Pedagogika va axborot texnologiyalari fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
sirtqi 21-09 guruh talabasi
Farg'ona viloyati, Toshloq tumani 26-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15342129>**

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalash va o'zaro munosabatlarini shakllantirish, milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirishning ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizdagi ahamiyati, oila va qadriyatlarning abadiy bir-biri bilan chambarchas bog'langanligi, bu jarayonlarda oila va ta'lim muassasalarini hamkorligini tashkil etish, bolalarga oiladagi munosabatining ijobiy darajasi to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, madaniyat, uzluksiz ta'lim, rivojlanish, tamoyillar, vazifalar, ustivor yo'nalishlar, qadriyat, an'ana, urf-odat.

Аннотация: В статье говорится о важности воспитания детей на основе национальных ценностей и традиций и формирования их взаимоотношений, о дальнейшем развитии наших национальных ценностей в нашей духовно-просветительской работе, о вечной неразрывности семьи и ценностей, об организации сотрудничества семьи и образовательных учреждений в этих процессах, о позитивном уровне отношения семьи к детям.

Ключевые слова: образование, воспитание, культура, непрерывное образование, развитие, принципы, задачи, приоритеты, ценности, традиции, обычаи.

Abstract: This article is about the importance of raising children on the basis of national values and traditions and forming their relationships, the further development of our national values in our spiritual and educational work, the eternal interdependence of family and values, the organization of cooperation between families and educational institutions in these processes, and the positive level of family attitude towards children.

Keywords: education, upbringing, culture, continuing education, development, principles, tasks, priorities, values, traditions, customs.

Mustaqil va barkamol avlodni tarbiyalashda asosiy ta'lim-tarbiya o'chog'i bu oila va ta'lim muassasasidir. Jamiyatimizda bola tarbiyasi g'oyat nozik va murakkab hisoblanadi. Tarbiyaning o'zi murakkab jarayon hisoblanadi. Tarbiya-aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon. Ta'lim-tarbiya masalasi oila hamda ta'lim muassasasi hamkorligida olib boriladigan mas'uliyatli vazifadir. Ta'lim muassasalari va oila o'zaro hamkorlikda ishlashi bola tarbiyasi ayniqsa barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur.

Oila va oilaviy qadriyatlar har bir inson hayotining asosi hisoblanadi. Aynan oilada shaxsiy rivojlanish boshlanadi, chunki qadriyatlar yaxlit tabiatning uyg'un rivojlanishi uchun zarur ko'nikmalarni singdira boshlaydi. Oila va qadriyatlar abadiy bir-biri bilan chambarchas bog'langan va alohida mavjud emas. Agar oila yo'q bo'lsa, unda oilaviy yo'nalish bexosdan o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini shakllantirish va o'zaro munosabatga tayyorlash imkoniyatlarini keltirgan holda tadqiqot mavzusining dolzarbligini quyidagicha tavsiflaymiz:

– Oilada bolalarni milliy qadriyatlar, fazilatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini shakllantirishda ularning individual, pedagogik-psixologik va xususiyatlarining ijobiy tomonlari hozirgi kunga kelib inobatga olinmayotgani;

– Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini maqsadli shakllantirishda zamonaviy tendensiyalari tizimlashtirilmagani;

– Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlari jarayonida optimal sharoitlar yuzaga keltirmayotgani;

– Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini shakllantirishgayo'naltirilgan samarali metod, shakl hamda vositalar, strategiya va texnologiyalar aniqlanib, amaliyotga joriy etilmagani; Ushbu muammolarni bartaraf etish dolzarb masala. Chunki oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini faolligi uchun sharoit yaratish;

- ota-ona bolalarining qobiliyatlarini aniqlash va shakllantirish;
- xulq-atvorini milliy rivojlantirish va boshqa faoliyat turlarining doimiy aloqadorligi uchun sharoit yaratish;
- bolalarni ma'naviy tarbiyalash, atrof-olam bilan tanishtirish, emotsional olamini boyitish, ijodga e'tibor va qiziqish uyg'otish;
- kommunikativ munosabatlarni rivojlantirish, o'zgalarni tinglay olish va o'zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishlash malakalarini shakllantirish;
- xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'lish hamda ularni qadrlashga o'rgatish;
- bolalarni teatr-kino madaniyatiga oshno qilish kabi ko'nikma va malakalarni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini o'zlashtirishlari ularning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini muvaffaqiyatli olib borishlari uchun muhim sanaladi.

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, harakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga hos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi.

Shaxsning ma'naviy sifatlariga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning etuk, barkamol bo'lib voyaga etishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelingan. Totalitar tuzum davrida esa oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o'rni inkor etilib, uni ijtimoiy borliq vositasida tarbiyalashga harakat qilindi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida fuqarolarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usining qaror topganligi, o'tmish hadriyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortganligi oilaning shaxs kamolotida tutgan o'rni va rolini holisona baholash imkonini berdi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bayon etadi: «Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlarini shakllanadi. O'zbekistonning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilaning, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amho'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir».

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. BMT.20.11.1989 YIL
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevral 25-sonli "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori
4. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik.T.2009
5. Pedagogik atamalar lug'ati.. – T.: "Fan", 2008. – B. 47.
6. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлл. -Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси, 2006.
7. Toxirovna, K. F. (2024). O 'Qituvchilik Faoliyatida Deontologik Tayyorgarlikni Oshirish. *Miasto Przyszłości*, 51, 146-148.
8. Kalandarova F.T. KOMPETENTSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSI SIFATIDA. <https://www.iupr.ru/5-120-2024>
9. Kalandarova, F. (2024). O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMMUNIKATIV QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA DEONTOLOGIK YONDASHUV. Namangan Davlat Universiteti.
10. Toxirovna, K. F. BO 'AJAK BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR Abdullayeva Nasibaxon Jo 'rayevna pfd, professor. *O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI UMUMIY PEDAGOGIKA KAFEDRASI*, 120.